

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
SHAHRISABZ FILIALI**

XOLMURODOV BAHODIR BAHROM O‘G‘LI

**YANTOQ ASOSIDA BOYITILGAN FUNKTSIONAL ICHIMLIKLAR
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish,
saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Sontents of the dissertation abstract of doctorof Philosophy (PhD)

Xolmurodov Bahodir Bahrom o'g'li

Yantoq asosida boyitilgan funktsional ichimliklar texnologiyasini ishlab
chiqish 3

Холмуродов Баходир Бахром ўғли

Разработка технологии обогащенных функциональных напитков на
основе верблюжьей колючки 21

Kholmurodov Bahodir

Development of technology for enriched functional beverages based on
alhagi..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
SHAHRISABZ FILIALI**

XOLMURODOV BAHODIR BAHROM O‘G‘LI

**YANTOQ ASOSIDA BOYITILGAN FUNKTSIONAL ICHIMLIK
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish,
saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.PhD/T4402 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali da bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (ik-kimyo.nuu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ishimov Uchqun Jomuradovich**
kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Isabayev Ismoil Babadjanovich**
texnika fanlari doktori, professor

Qarshiyev Tolib Ovlayevich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Etakchi tashkilot: **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «28» 10 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20, faks: (99871) 244-79-17; e-mail: tsti_info@edu.uz.) Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (376 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'ch., 32. Tel.: (99871) 244-79-20.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil «29» 09 dagi № 514 raqamli reestr bayonnomasi).



S.M. Turobjonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor, akademik

X.I. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

Q.P. Serkaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida sogʻlom ovqatlanish va isteʼmolchilarning salomatligini yaxshilashga qaratilgan funksional ichimliklar ishlab chiqarish yaratish ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga inson organizmi uchun foydali moddalar, vitaminlar, minerallar, probiotiklar va oʻsimlik ekstraktlarini saqlagan, chanqoqni qondirish bilan birga organizmning umumiy holatini yaxshilash, immun tizimini mustahkamlash, alimantar kasalliklarning oldini olish xususiyatlarga ega funksional ichimliklar ishlab chiqarish va qoʻllanilish sohalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda tabiiy antioksidantlar va biokimyoviy moddalar bilan boyitilgan ichimliklar tarkibini yaratish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, sogʻliq uchun foydali komponentlarga boy, biofaol tarkibga ega mahsulotlar, vitamin va minerallar bilan boyitilgan probiotik tarkibli va oʻsimlik ekstraktleri asosida tayyorlangan energetik ichimliklar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va sinovdan oʻtkazishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizda sogʻlom ovqatlanishni tizimli yoʻlga qoʻyish, jismoniy faollikni oshirish, funksional oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning energiya va resurs tejankor tizimlardan foydalanishga alohida eʼtibor qaratilib, muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza, sifat koʻrsatkichlari yuqori boʻlgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada keng tarqalgan shifobaxsh oʻsimliklarni aniqlash, shu jumladan boy biofaol tarkibga ega boʻlgan yantoqning kimyoviy tarkibi hamda biologik faolligini oʻrganish, uning asosida funksional ichimlik tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026 yillarga moʻljallangan rivojlanish strategiyasi toʻgʻrisida»gi, 2019 yil 23 oktyabrdagi PQ-5853-sonli «Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarda moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi, 2020 yilning 9 sentyabridagi PQ-4821 sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish va aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan toʻlaqonli taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2024 yil 16 fevraldagi PQ-4821-son «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmon va qarorlari, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boyitilgan ichimliklar olish texnologiyasi ishlab chiqish, funksional ichimliklar tarkibini yaratishda vitaminlar, minerallar va tabiiy antioksidantlardan foydalanish bo‘yicha K. Granato, S.C. Shahidi, J.G.V. Dantas, J.R. Aguilera, M.E. de Souza, A.B. Trindade, X.T. Salomov, Q.O. Dodaev, I.B. Isabayev, M.S. Zokirova, D. Saribayeva, Q.S. Raxmonov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ular tomonidan funksional ichimliklar ishlab chiqarish texnologiyalarining nazariy asoslari rivojlantirilgan, noana’naviy xom ashyolardan yangi turdagi mahsulotlar tayyorlash uslublari yaratilgan, mahsulot sifatini oshirish va iste’mol xavfsizligini ta’minlash, texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish yo‘nalishlarida bajarilgan tadqiqot ishlari natijalari amaliyotga joriy etilgan.

Shu bilan birga funksional va boyitilgan ichimliklarni yaratishda o‘simlik ekstraktlari, tabiiy antioksidantlar va biofaol moddalarning inson organizmi uchun ta’sirini aniqlash, yantoq asosida vitamin va minerallar bilan boyitilgan, probiotik tarkibga ega sut mahsulotlari va energetik ichimliklar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar bugungi kunga qadar bajarilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq № IL-59734673 «Alimentar kasalliklar profilaktikasi uchun funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish» (2023-2025 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yantoq asosida boyitilgan funksional ichimliklar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

yantoq ekstraktining antiradikal faolligini o‘rganish;
yantoq tarkibiy qismlaridan biologik faol moddalarga boy konsentrat olish texnologiyasini tadqiq etish;

yantoq konsentratining organoleptik, fizik-kimyoviy va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish;

yantoq konsentratini qo‘shib boyitilgan ichimliklar retsepturasini tuzish hamda texnologiyasini ishlab chiqish, olingan ichimlikni organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini tadqiq etish;

boyitilgan funksional ichimliklar texnologiyasini ishlab chiqarishga qo‘llashdagi iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida yantoq o‘simligi va tarkibiy qismlari, ekstraktiv moddalar, funksional ichimliklar retseptlari olingan.

Tadqiqotning predmeti funktsional ichimliklar olish texnologiyasi, tayyor ichimlikning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tadqiq etish, funktsional ichimliklar tarkibini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari: yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, induktiv bog'langan mass-spektroskopiya, refraktometriya.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yantoqning yer ustki qismlari - poyasi, bargi va urug'idan konsentrat olishning maqbul parametrlari (harorat 40 °C, etil spiritning konsentratsiyasi 40 %, pH ~ 4,5, gidromodul 1:40, ekstraksiya davomiyligi 15-20 minut) asoslangan;

Xorazm yantog'ida B₁ vitamini Qashqadaryodagiga nisbatan 5,8, B₂ vitamini 3,3, B₉ vitamini esa 1,8 marta ko'pligi aniqlanib, rutin, degidrokversetin, senerozid hamda glitsin, asparagin, sistein va valin kabi aminokislotalarga (5308,4 mg/100 g ga nisbatan 1501,8 mg/100 g) boyligi isbotlangan;

yantoq poyasi va bargi ekstraktining antiradikal faolligi 10 mkl va 50 mkl konsentratsiya oralig'ida ingibirlash darajasi 4,61 barobar, yantoq urug'inikida esa 4,04 barobar yuqoriligi isbotlangan;

yantoq konsentrati 3-6 %, anor sharbati 3-5 %, malina sharbati 2-5 %, qovoq sharbati 1-4% tarkibli boyitilgan ichimlik retsepturasi aniqlanib, ichimlik tarkibi va alohida komponentlarining alimantar kasalliklar profilaktikasiga ta'siri asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

yantoq tarkibiy qismlaridan biologik faol moddalarga boy konsentrat olishning maqbul parametrlari aniqlangan;

yantoq ekstrakti qo'shilgan funktsional ichimliklar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Taqdim etilayotgan texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik kuniga 100 dal funktsional ichimlik uchun 2,6 mln. so'mni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi eksperimentlar tahlilida zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotlar, funktsional ichimliklar tayyorlash texnologiyasini amaliyotga joriy etish bo'yicha innovatsion ishlanmalar ro'yxatiga kiritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, yantoqning Xorazm va Qashqadaryo viloyatlaridagi namunalari kimyoviy tarkib jihatidan taqqoslanib, biologik faol moddalarning hududiy farqlanishi, yantoqning poya, barg va urug' qismlaridan yuqori biofaol flavonoidlar (rutin, degidro kvertsetin, senerozid) va aminokislotalarga boy konsentratlarni ultratovushli ekstraksiya orqali ajratib olishning ilmiy asoslari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati B guruh vitaminlar, rutin, degidrokversetin, senerozid hamda glitsin, asparagin, sistein va valin kabi aminokislotalarga boy, sog'liq uchun foydali mahsulotlar hamda vitamin va minerallar bilan boyitilgan probiotik tarkibli va o'simlik ekstrakti asosida tayyorlangan ichimliklar olish texnologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yantoq tarkibiy qismlarini qayta ishlash asosida funksional ichimliklar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yantoq ekstrakti asosida funksional ichimliklarni boyitish texnologiyasi «O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi»ning 2024-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan innovatsion ishlanma ro'yhatiga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025 yil 11 yanvardagi №11-04/01-25-son ma'lumotnomasi). Natijada yantoq tarkibiy qismlaridan vitamin va minerallarga boy o'simlik ekstraktlari olish imkonini beradi;

yantoq asosida funksional ichimliklarni boyitish texnologiyasi «O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi»ning 2024-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan innovatsion ishlanma ro'yhatiga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025 yil 11 yanvardagi №11-04/01-25-son ma'lumotnomasi). Natijada yantoq ekstrakti asosida biologik faollikka ega, organoleptik ko'rsatkichlari yaxshilangan, saqlanish muddati uzaytirilgan funksional ichimlik ishlab chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, 6 ta mahalliy va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga olgan. Dissertatsiya tarkibiga 16 ta rasm, 37 ta jadval kiritilgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 112 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar tahlili. yantoq (alhagi), uning turlari va funksional ichimliklar ishlab chiqarish istiqbollari**» deb nomlangan birinchi bobida turli mutaxassislar tomonidan *Alhagining* turli navlari asosida o'tkazilgan tadqiqotlar, funksional ichimliklar va ularni ishlab chiqarishdagi texnologiyalar va olingan mahsulotlar tavsifi, bob bo'yicha xulosalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot ob'ekti va usullari**» deb nomlangan ikkinchi

bobida o'rganish ob'ektlari, xomashyo tarkibidagi flavonoidlar, vitaminlar, aminokislotalar miqdorini yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasida aniqlash va uning tahlili, xomashyo tarkibidagi flavonoidlar miqdorini yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasida aniqlash va uning tahlili, yantoq ekstraktini antiradikal faolligini DFPG usulida aniqlash kabi ma'lumotlar keltirilgan.

Namunalardagi flavonoidlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasida yordamida aniqlandi va uning tahlili o'tkazildi.

Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yantoq o'simlik qismlari tarkibidagi flavonoidlarning miqdori (mg/gr)

T/r	O'simlik qismi	Degidro kversetin	Rutin	Kversetin	Lyutionin	Senerozid
1.	Yantoq bargi	9,85	2,78	1,84	1,02	3,10
2.	Yantoq poyasi	9,49	1,40	1,43	3,31	3,69
3.	Yantoq urug'i	9,44	11,32	1,94	1,31	0,000

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, yantoq (*Alhagi maurorum*) o'simligining barcha qismlarida flavonoidlarning sezilarli miqdorda mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, degidro kversetin miqdori yuqori bo'lib, yantoq bargida 9,85 mg/g, poyasida 9,49 mg/g, urug'ida esa 9,44 mg/g miqdorda aniqlangan. Ushbu flavonoidning yuqori konsentratsiyasi uning kuchli antioksidant va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarini tasdiqlaydi.

Rutin eng ko'p miqdorda urug'da 11,32 mg/g miqdorida uchrab, boshqa qismlarga nisbatan ushbu qismning boyroq biofaollikka ega ekanligini ko'rsatadi. Bu birikma kapilyar tomirlarni mustahkamlovchi va qon aylanishini yaxshilovchi xususiyatlari bilan mashhur. Yantoq poyasida esa rutin miqdori 1,40mg/g tashkil etganligi bilan uning urug'dagi miqdorga nisbatan sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi.

Kversetin barcha qismlarda aniqlangan bo'lib, eng yuqori miqdori urug'da 1,94 mg/g ni tashkil etilgan. U allergiyaga qarshi va antioksidant xususiyatlarga ega flavonoid bo'lib, o'simlikning dorivor ahamiyatini oshiradi.

Lyutionin asosan poyada 3,30 mg/g miqdorida to'planib, ushbu qismlarning o'ziga xos biologik faolligini ko'rsatadi. Barg va urug'da bu flavonoid mos ravishda 1,02mg/g va 1,30 mg/g ni tashkil etgan.

Senerozid urug'da aniqlanmagan, biroq bargda 3,09 mg/g va poyada 3,69 mg/g ni tashkil etib, nisbatan yuqori miqdorda mavjudligi aniqlangan. Ushbu flavonoidning yallig'lanishga qarshi va siydik haydovchi (diuretik) ta'siri yantoqning farmakologik qiymatini oshiradi.


Yantoq o'simligi qismlarida flavonoidlarning taqsimoti uning biologik faolligi va dorivor qiymatini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar yantoqning farmakologik tadqiqotlari uchun asos yaratadi va uni dorivor o'simlik sifatida keng qo'llash imkonini beradi. Yantoq (*Alhagi*) o'simligi tarkibida turli biofaol birikmalar mavjud bo'lib, ularning miqdori o'sadigan hududga qarab farq qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida o'sadigan yantoq namunalarining kimyoviy tarkibi o'rganildi. Jumladan, degidro kversetin, rutin, kversetin, lyutionin va senerozid birikmalarining miqdori (mg/100g) taqqoslandi.

Tadqiqot ishlarida 2 ta hudud (Qashqadaryo va Xorazm) yantoq namunalaridagi flavonoidlar miqdori solishtirildi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.

1-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, Qashqadaryo yantog'ida degidro kversetin miqdori 964,82 mg/100g ni, rutin 812,35 mg/100g ni va senerozid esa 364,59 mg/100g tashkil etgan bo'lib, Xorazm yantog'iga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, havo, iqlim va tuproq sharoitlarining o'simlik biokimyoviy tarkibiga ta'sir etishini ko'rsatadi. Ayniqsa, rutinning yuqori miqdori o'simlikning antioksidant faolligi va kapillyar mustahkamlovchi xususiyatlarini oshirishi mumkin.

Boshqa tomondan, kversetin miqdori ikki hududda deyarli bir xil, ya'ni Qashqadaryo yantog'ida 185,6 mg/100g bo'lsa, Xorazm yantog'ida esa 193,3 mg/100g ni tashkil etgan. Bu, ehtimol, ushbu flavonoid biosintezining hududiy omillardan kamroq ta'sirlanishini ko'rsatadi. Lyutionin tarkibi ham nisbatan yaqin bo'lib, Qashqadaryo namunalarida 302,65 mg/100g, Xorazmda esa 263,05 mg/100g ni tashkil etgan.



1-rasm. Qashqadaryo va Xorazm viloyatlaridagi yantoq o'simligi tarkibidagi flavonoidlarning taqqoslash diagrammasi

Yantoqning yer ustki qismlarida suvda eruvchi vitaminlar miqdori aniqlanib, olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, yantoqning barg qismida vitaminlar miqdori yuqori saqlanishi aniqlandi. B₉ vitamini barg qismida eng ko'p miqdorga yetdi, yantoq poyasida esa B₆ vitamini yuqori darajaga egaligi aniqlandi.

2-jadval

Yantoq yer ustki qismlarining tarkibidagi vitaminlar miqdori (mg/100g)

Vitaminlarning nomlanishi	Qashqadaryo viloyati	Xorazm viloyati
B ₁ -tiamin	330	1908,2
B ₂ -riboflavin	1190,84	3965,12
B ₆ -peridoksin	1959,31	1650,49
B ₉ -folat kislotasi	4769,62	8633,61
PP-nikotinamid	562,54	600
C-askorbin kislotasi	2233,52	3161,4

Yantoq tarkibidagi vitaminlar miqdorini tahlil qilish natijasida uning hududiga qarab sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Xorazm yantog'ida B₁ vitamini 1908,2 mg/100gni, B₂ 3965,12mg/100g ni, B₉ 8633,61 mg/100g ni va C vitamini 3161,4 mg/100g miqdorida bo'lib, Qashqadaryo yantog'i tarkibidagi vitaminlarga nisbatan sezilarli darajada ko'proq ekani kuzatildi.

Bu vitaminlar organizmda energiya almashinuvi, asab tizimi faoliyati va immunitetni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo yantog'ida esa nikotinamid (PP vitamini) 562,54 mg/100g miqdorda aniqlangan bo'lib, Xorazm yantog'ida ushbu vitamin umuman uchramagan. Ushbu vitamin organizmda moddalar almashinuvi va hujayralarning energiya ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. B₆ vitamini miqdori ikki hududda deyarli bir xil bo'lib, Qashqadaryo yantog'ida 1959,31 mg/100g, Xorazm yantog'ida 1650,49 mg/100g ekani aniqlandi. Bu vitamin oqsil almashinuvida va asab tizimining normal ishlashida muhim rol o'ynaydi. Hududiy farqlar yantoqning vitamin tarkibiga sezilarli ta'sir qilishi kuzatildi, bu esa tuproq tarkibi, iqlim sharoitlari va agrotexnik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu natijalar dorivor o'simlik sifatida yantoqdan foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

O'rganilayotgan yantoq turlarida makro va mikro elementlar miqdori plazmalar induktiv bog'langan mass-spektrometriya (ISP-MS) usulida aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Alhagi maurorum o'simligi tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori (mg/kg)

№	Element	Qashqadaryo viloyati		Xorazm viloyati	
		urug'i	barg va tana	urug'i	barg va tana
Makroelementlar miqdori (mg/kg)					
1.	Natriy (Na)	1400	4200	1200	3809
2.	Magniy	6400	14000	2500	3334
3.	Alyuminiy	190	320	340	722
4.	Fosfor (P)	8000	2400	350	465
5.	Kaliy (K)	20000	11000	3000	2164
6.	Kaltsiy (Ca)	45000	100000	4200	7699

Mikroelementlar miqdori (mg/kg)					
7.	Litiy (Li)	0,21	0,38	0,18	0,232
8.	Bor (B)	0,480	1,200	0,15	0,22
9.	Skandiy	0,0160	0,0230	0,0390	0,0827
10.	Titan (Ti)	0,390	0,250	0,130	0,179
11.	Xrom (Cr)	0,013	0,012	0,0583	0,0543
12.	Marganets	4	7,7	2,46	2,81
13.	Kobolt	0,32	0,43	0,390	0,490
14.	Mis (Cu)	1,30	2,60	1,652	0,936
15.	Rux (Zn)	9,40	8,60	2,68	2,26
16.	Galliy	0.180	0.200	0.110	0.136

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yantoq namunalariidagi barcha elementlar ruxsat etilgan maksimal darajadan oshmaydi. Ayrim elementlar (mis, marganets, rux) Qashqadaryo yantog'ida ko'proq bo'lsa, ba'zilar (skandiy, titan) Xorazm yantog'ida yuqoriroq miqdorda aniqlangan. Bu hududiy sharoitlar, tuproq tarkibi va ekologik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xomashyo tarkibidagi og'ir metallar miqdorini induktiv bog'langan mass-spektrometriya usulida aniqlanib, olingan natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Alhagi maurorum o'simligi tarkibidagi og'ir metallar miqdori (mg/kg)

№	Element	Maksimal ruxsat etilgan doza	Qashqadaryo viloyati		Xorazm viloyati	
			urug'i	barg va tana	urug'i	barg va tana
1.	Kadmiy	0,3	0,010	0,007	0,036	0,032
2.	Simob	0,2	<0,10	<0,10	<0,10	<0,10
3.	Qo'rg'oshin	10,0	0,86	1,30	0,452	0,867
4.	Margimush	4,0	1,10	1,6	0,53	0,81

4-jadval natijalariga ko'ra, kadmiy, simob va qo'rg'oshin kabi toksik elementlarning miqdori barcha namunalarda maksimal ruxsat etilgan dozadan past.

Xususan, kadmiy miqdori Qashqadaryo namunalariida 0,010–0,007 mg/kg, Xorazm namunalariida esa 0,036–0,032 mg/kg miqdorida aniqlanib, bu 0,3 mg/kg ruxsat etilgan chegaradan ancha past. Simob miqdori esa barcha namunalarda 0,1 mg/kg dan past bo'lib, bu ham xavf darajasi yo'qligini bildiradi. Qo'rg'oshin ko'rsatkichi 0,452–1,30 mg/kg oralig'ida aniqlanib, 10,0 mg/kg me'yor ichida ekanligi qayd etildi.

Biroq, Qashqadaryo viloyatida o'sgan yantoqning barg va tana qismlarida margimush (As) miqdori 1,6 mg/kg ni tashkil etdi, bu esa ruxsat etilgan 4,0 mg/kg dan past ko'rsatkichdir.

Shunday qilib, Qashqadaryo yantog'ining urug'lari va Xorazm viloyatidagi namunalari xavfsiz deb topilib, funksional ichimlik ishlab chiqarishda foydalanishga yaroqli ekanligi isbotlandi. Qashqadaryo viloyatidagi vegetativ

qismlar esa faqat tozalash va xavfsizlik bo'yicha qo'shimcha ishlov berilgandan keyingina foydalanilish mumkin.

Yantoqning poya, bargi va urug' qismlari ekstraktining antiradikal faolligi DFPG usuli yordamida o'rganilgan va uning tahlili o'tkazilgan.

Barcha namunalar 1 mg/ml miqdorda suv va etil spirtida eritilib, dastlabki eritma sifatida foydalanildi. Dastlabki eritmadan 10, 20, 30, 40 va 50 mkl miqdorda 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil (DFPG)ning 3 ml eritmasiga qo'shildi. 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil (DFPG) erkin radikalining ingibirlanish darajasi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Yantoq o'simligi yir ustki qismlarining 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil (DFPG) erkin radikalining ingibirlanish darajasi

Modda (spirtli eritma)	Ingibirlash, % (10 chi minut holatiga)				
	10 mkl	20 mkl	30 mkl	40 mkl	50 mkl
Yantoq poyasi va bargi	5±1,3	9,1±2,4	11,4±2,5	17±1,7	20,2±1,6
Yantoq urug'i	18,1±1,8	32,6±1,5	60,7±1,4	74,3±2,4	83,5±2,8

5-jadval natijalari ko'ra, konsentratsiya oshgani sari yantoq poyasi va bargining ingibirlash darajasi ham ortadi.


Tahlil natijalariga asosan yantoq yer ustki qismlarining antiradikal faolligi konsentratsiya oshgan sari 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil (DFPG) erkin radikalining ingibirlanish darajasi ham oshib bormoqda.

Dissertatsiyaning «**Tarkibi boyitilgan funksional ichimliklar ishlab chiqarish texnologiyasi va uni qo'llashdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik**» deb nomlangan uchinchi bobi yantoqni qayta ishlab asosida biologik faol moddalarga boy ekstrakt ishlab chiqarish texnologiyasi, mahalliy o'simliklar asosida funksional ichimliklar tayyorlashdagi texnologik jarayonlar, ularning ketma-ketligi, resepturalar tuzish va uni asoslash, yantoq o'simligi asosida funksional ichimliklar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish, yantoq o'simligi asosida funksional ichimliklar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish, funksional ichimliklarni organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, taklif etilayotgan texnologiyani ishlab chiqarish korxonalariga joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik hisobi keltirilgan.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan keyin yantoqni qayta ishlab biologik faol moddalarga boy konsentrat ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi.

O'simlik xomashyolarini qayta ishlash jarayonida uning mexanik ta'sirga chidamliligi, qattiqlik darajasi, namligi, kimyoviy tarkibi va boshqa xususiyatlari hisobga olinadi. Ushbu jarayonda ishlatiladigan uskunalarni to'g'ri tanlash qayta ishlash jarayonining samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Xomashyoni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda xomashyoning xususiyatlariga mos ravishda transportyorlar, shneklar, noryalar va suyuqliklar uchun turli nasoslar qo'llaniladi.

Yantoqdan biologik faol moddalarga boy konsentrat olish texnologik sxemasi quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



1-maydalash mashinasi; 2-to‘rli setka; 3-ekstragent saqlash idishi; 4-ultratovushli ekstraktor; 5-nasoslar; 6-rotorli vakuum bug‘latkich; 7-ekstrakt saqlash idishi

2-rasm. Yantoq yer ustki qismlaridan biofaol moddalarga boy konsentrat olish texnologik sxemasi

Yantoq korxonaga qabul qilinadi. Tarkibiy qismlari bo‘yicha nazoratdan o‘tkaziladi. Ekstaksiya jarayoni tezligi va ekstragent xomashyoga yaxshi singishi uchun maydalash mashinasi (1) da bir xil o‘lchamga keltiriladi. Maydalash vaqtida xomashyoning yuzasi va ekstraksiya vaqtida biofaol moddalarning chiqishi yanada ortadi. Maydalangan xomashyo o‘lchamlarini va maydalanmasdan qolgan qismlarni nazorat qilish uchun to‘rli setka (2) dan o‘tqaziladi. Ekstragentlar sifatida spirt va suv ekstragent saqlash idishi (3) da saqlanadi. Saqlash idishida spirt 40%li konsentratsiyaga keltiriladi.

Qayta ishlanayotgan xomashyoning kerakli biofaol moddalarini ajratib olishda uning kimyoviy va fizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda usul tanlash maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtda moddalarning ajratishni ekstraksiya usuli boshqa usullarga qaraganda ajralib turadi. Ushbu usulning ham bir-necha turlari mavjuda bo‘lib, xomashyoning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ultratovushli ekstraksiya usulini tavsiya etiladi.

Tayyorlangan xomashyo va ekstragent ultratovushli ekstraksiya (4) ga uzatiladi va ekstraksiya jarayoni amalga oshiriladi. Hidromodul 1:40 nisbatda, Usuli boshqa ekstraksiya usullaridan vaqtni 15-20 daqiqagacha qisqartirish imkonini beradi. Jarayon 40°C haroratda amalga oshiriladi. Bu esa yuqori haroratda parchalanuvchi biofaol moddalarning yo‘qotilishining oldi olinadi.

Ekstraksiyadan chiqqan suyuqlik va qolgan qoldiqlar bir-biridan ajratilib, suyuq massa spirtni nasos (5) da ajratib olish uchun rotorli vakuum bug‘latgich (6) ga yuboriladi. Spirtning bug‘lanish harorati 78.37°C bo‘lgani sababli, bu jarayon odatda yuqori haroratda amalga oshiriladi, ammo bu biofaol moddalarning bir qismini yo‘qotishga olib keladi. Rotorli vakuum bug‘latkich yordamida bu jarayonni 40°C haroratda amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Bu usul biofaol moddalar saqlanishini ta'minlaydi va sifatni buzmasdan spirtni samarali ajratib olish imkonini beradi. Vakuum bug'latkich energiya sarfini kamaytiradi, chunki past haroratda bug'lanish jarayonini tezlashtirish uchun yuqori haroratlarda talab qilinmaydi. Tayyor ekstrakt keyingi bosqichga o'tish uchun maxsus saqlash idishlar (7) ga quyiladi.

Olingan yantoq konsentratida etil spirtining qoldiq miqdori 0,00312 % ni tashkil etdi. GOST R 56543–2015 funksional ichimliklar umumiy texnik shartlarga asosan funksional ichimliklar tarkibida spirt miqdori 0,5% dan kam bo'lishi belgilangan, demak xavfsiz deb baholanadi.

Yantoq konsentratida tarkibidagi flavonoidlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromotografiya usulida aniqlandi (6-jadval).

6-jadval

Yantoq konsentratida tarkibidagi flavonoidlar miqdori (mg/100g)

№	Flavonoidlarning nomlanishi	Miqdori
1.	Degidro kversetin	1929,5
2.	Rutin	1647
3.	Kversetin	371
4.	Lyutionin	605
5.	Senerozid	729

6-jadval natijalariga ko'ra, yantoq (*Alhagi*) o'simligi asosida tayyorlangan konsentratda flavonoidlar yuqori miqdorda aniqlangan. Ayniqsa, degidro-kversetin 1929,5 mg/100 g ni va rutin 1647 mg/100 g biologik faol moddalarning katta konsentratsiyada mavjudligi ushbu o'simlik ekstrakti salomatlik uchun muhim antioksidant manbai bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Yantoq konsentratida tarkibidagi vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasida tahlil qilindi (7-jadval).

7-jadval

Yantoq konsentratining vitaminlar miqdori (mg/100g)

№	Vitaminlarning nomlanishi	Miqdor
1.	B ₁ vitamini (Tiamin)	763
2.	B ₂ vitamini (Riboflavin)	1586
3.	B ₆ vitamini (Piridoksin)	660
4.	B ₉ vitamini (Foliy kislota)	3022
5.	PP vitamini (Niatsin)	1590
6.	C vitamini (Askorbin kislota)	804

7-jadval natijalariga ko'ra, yantoq konsentratida B guruhiga kiruvchi vitaminlar - riboflavin (B₂) va foliy kislota (B₉) yuqori miqdorda aniqlangan.

Yantoq konsentratida tarkibidagi aminokislotalar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasida tahlil qilindi (8-jadval).

**Alhagi maurorum yantoq o‘simligi va konsentrati tarkibidagi
aminokislotalar miqdori (mg/100g)**

T/r	Aminokislotalarning nomlanishi	Miqdori	
		Yantoq o‘simligi	Yantoq konsentrati
1.	Asparagin kislota	12,32	24,694
2.	Glutamin kislota	187,89	281,84116
3.	Serin	90,40	135,60272
4.	Glitsin	347,44	521,16812
5.	Asparagin	700,67	1051,0122
6.	Glutamin	389,11	583,66532
7.	Sistein	655,19	982,78696
8.	Treonin	280,71	421,06544
9.	Argenin	198,73	298,09724
10.	Alanin	197,24	295,87156
11.	Prolin	190,20	285,30452
12.	Tirozin	369,80	554,70736
13.	Valin	451,96	677,94164
14.	Metionin	112,22	168,3264
15.	Izoleysin	100,06	150,093
16.	Leysin	235,67	353,50816
17.	Gistidin	241,56	362,3352
18.	Triptofan	124,54	186,8124
19.	Fenilalanin	115,49	173,24024
20.	Lizin	319,44	479,15836
	Jami	5308,36	7962

8-jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, yantoq o‘simligi va undan 50% gacha quyiltirilgan konsentrat tarkibidagi 20 ta aminokislota miqdori ko‘rsatilgan.

So‘ngra, Alhagi maurorum ning suyuq konsentratining o‘tkir zaharliligi o‘rganildi. Tajriba guruhidagi hayvonlar nazorat guruhi sichqonlari bilan solishtirilganda, *Alhagi maurorum* konsentrati 2000 va 5000 mg/kg dozada yuborilganida tana vaznida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi (9-jadval).

Alhagi maurorum ning suyuq konsentratining o‘tkir zaharlilik xususiyatlari sichqonlarda o‘rganilganda, OECD tasnifiga ko‘ra VI-sinf – nisbatan zaharsiz birikmalar sinfiga tegishli ekanligi aniqlandi. Oshqozonga bir martalik yuborishda, o‘rtacha o‘lim doza (LD₅₀) 5000 mg/kg dan yuqori ekanligi qayd etildi.

9-jadval

Alhagi maurorum ekstraktining o'tkir LD₅₀ tahlili

Guruh	Hayvon turi	Doza (mg/kg)	O'lim holati (n=5)	Tana vazni (1-kun, g)	Tana vazni (7-kun, g)	Tana vazni (14-kun, g)	LD ₅₀
Alhagi maurorum konsentrati	Sichqon (erkak)	2000	0/5	21	23	24	>5000 mg/kg -
	Sichqon (erkak)	5000	0/5	20	22	24	
Nazorat guruhi	Sichqon (erkak)	0 (suv)	0/5	21	23	25	

O'tkazilgan tahlil natijalari asosida mahalliy o'simlik xomashyosi bo'lgan yantoq o'simligidan olingan konsentratni qo'shish orqali funksional ichimlik olishning resepturasi tuzildi va texnologiyasi ishlab chiqildi, nazorat namuna sifatida yalpiz asosidagi ichimlik olindi (10-jadval).

10-jadval

Ichimlik tayyorlash uchun retseptura

Xomashyo nomi	Nazorat (yalpiz asosidagi ichimlik)	№1 retsept	№2 retsept	№3 retsept	№4 retsept
	Miqdori, % hisobida				
Ichimlik suvi	86	86	87	84	84
Yalpiz ekstrakti	4	-	-	-	-
Shirinmiya ekstrakti	2	-	-	1	-
Limon sharbati	8	-	-	-	-
Yantoq konsentrati	-	3	4	5	6
Anor sharbati	-	5	4	3	4
Malina sharbati	-	4	4	2	4
Qovoq sharbati	-	2	1	4	2
Qand	-	0	0	1	0
Jami	100	100	100	100	100

10-jadvalda keltirilgan raqamlardan shuni izohlash mumkinki, yantoq ekstrakti ichimlikning funksional xususiyatlarini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yantoq ekstrakti miqdori 1% dan kam bo'lganda, ichimlikning kutilgan natijalarga javob bermaydi. Shu bilan birga, 6% dan ortiq miqdorda qo'shilishi esa ichimlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, belgilangan chegara miqdorlariga qat'iy rioya qilishning zarurligini ko'rsatadi. Ushbu chegaralarda foydalanish orqali yantoq ekstrakti o'zining foydali xususiyatlarini to'liq namoyon qilishi mumkin.

Anor sharbatining pH muvozanatini ta'minlashdagi roli muhim. 3% dan kam qo'shilganda kislotalik buzilishi va mahsulot saqlash xususiyatining


yomonlashishi kuzatilgani, 5% dan oshganda esa ichimlikning nordon ta'mga ega bo'lib qolishi, ushbu komponentning ham qat'iy miqdor chegaralarida qo'llanishi zarurligini ko'rsatadi.

Malina sharbati 2% dan 4% oralig'ida qo'shilganda organoleptik xususiyatlarni ijobiy ta'sirda saqlab qolishiga e'tibor berilgan, belgilangan me'yorlar e'tiborga olingan.

Qovoq sharbatining tarkibni boyitishdagi ahamiyati ham o'zgacha. Biroq uning miqdori 4% dan oshganda loyqalik va cho'kma hosil bo'lishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi, bu komponentdan foydalanishda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Ushbu tahlillar ichimlik tayyorlash texnologiyasini yanada takomillashtirish va yuqori sifatli, foydali mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

To'plangan ma'lumotlar va o'rganishlar natijasida yantoq konsentrati asosida funksional ichimlik ishlab chiqarish texnologik sxemasi taklif etildi (3-rasm).



1-shakar sirop tayyorlash uchun idish; 2-sterilizator; 3-aralashirgichli qozon;
4-dearator; 5-pasterezator; 6-filtr; 7-qadoqlash mashinasi

3-rasm. Funksional ichimlik ishlab chiqarish uchun taklif etilayotgan texnologik sxema

Olingan funksional ichimliklarni o'rgandik va ulardagi aminokislotalar, vitaminlar va uglevodlar miqdorlarini taqqoslash asosida tahlil qilindi, natijalar 11-jadval keltirildi.

11-jadval

**Funksional ichimliklar tarkibidagi aminokislotalar, flavonoidlar,
vitaminlar va uglevodlar miqdori**

№	Aminokislotalar	Nazorat (yalpiz asosidagi ichimlik)	Ichimlik №1	Ichimlik №2	Ichimlik №3	Ichimlik №4
Aminokislotalar miqdori (mg/100g)						
1.	Aspartat kislota	44,3	28,1	63,6	45,2	37,2
2.	Glutamat kislota	40,9	47,1	12,1	28	27,8
3.	Serin	14,6	95,7	72,5	150,4	115,6
4.	Glitsin	18,0	39	55	64,3	52,4
5.	Asparagin	44,3	14	65,2	86,1	31,9
6.	Glutamin	40,9	15,4	70,5	46,9	31
7.	Sistein	4,1	28,1	24,6	44,4	39,7
8.	Treonin	15,4	24,4	43,5	44,2	51,4
9.	Arginin	17,3	15,5	24,7	19,9	15,5
10.	Alanin	19,5	8,4	5,8	10,2	10,3
11.	Prolin	15,4	12,6	10,7	8,4	12,4
12.	Tirozin	11,3	13,7	11,6	16,6	16,6
13.	Valin	18,7	31,6	28,1	63,1	35,7
14.	Metionin	5,3	41,8	30,9	34,4	40,6
15.	Gistidin	7,5	18,1	48	28,1	17,7
16.	Izoleytsin	15,4	36,8	27	65	46,8
17.	Leytsin	28,1	35,9	32,2	39,8	37,8
18.	Triptofan	5,8	27,5	23,2	35,5	30,6
19.	Fenilalanin	19,1	14,6	11,9	33	20,1
20.	Lizin	16,1	15,4	8,2	28,9	20,3
Flavonoidlar miqdori (mg/100ml)						
21.	Degidro kversetin	Aniqlan-madi	158,219	154,36	173,655	192,95
22.	Rutin	1,4	135,054	131,76	148,23	164,7
23.	Kversetin	15,8	30,422	29,68	33,39	37,1
24.	Lyutionin	13,7	49,61	48,4	54,45	60,5
25.	Senerozid	0,7	59,778	58,32	65,61	72,9
Vitaminlar miqdori (mg/100ml)						
26.	B ₁ -tiamin	0,82	82,4	71,9	60,8	80,7
27.	B ₂ riboflavin	2,66	73,9	103	74,3	85,5
28.	B ₆ peridoksin	1,29	101,4	161,6	78,2	63,4
29.	B ₉ foliy kislota	2,09	14,1	54,2	32,5	42,4

30.	PP niatsin	4,19	98,4	186,4	26,7	98,7
31.	C askorbin kislotasi	3,18	31,9	48,2	55,2	71,5
Uglevodlar miqdori (mg/100ml)						
32.	Fruktoza	-	68,94	72,21	132,48	99,69
33.	Glyukoza	12	71,67	75,76	141,87	104,70
34.	Saxaroza	-	18,13	41,36	106,21	58,98
35.	Maltoza	10	0,26	0,66	1,44	0,63

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi ichimliklarning tarkibidagi aminokislotalar, flavonoidlar, vitaminlar va uglevodlar miqdori nazoratga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Ishlab chiqarilgan funksional ichimlikni inson organizmiga no‘jo‘ya tasiri yoqligi hamda barcha sifat ko‘rsatkichlari boyicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 1 iyuldagi “Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida” 345-son qarori bilan tasdiqlangan ko‘rsatkichlariga mos ekanligi taqqoslandi.

Taklif etilayotgan texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik kuniga 100 dal funksional ichimlik ishlab chiqarish korxonasi 2,6mln. so‘mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Xorazm yantog‘ida Qashqadaryo yantog‘iga nisbatan flavonoidlarning umumiy miqdori 2,3 barobar pastligi va aksincha aminokislotalarning umumiy miqdori esa 3,5 barobar yuqori miqdorda ekanligi aniqlangan.

2. Tajriba asosida yantoq poya va bargi ekstraktining antiradikal faolligi 10 mkl va 50 mkl konsentratsiya oralig‘ida ingibirlash darajasi 4,61 barobar, yantoq urug‘ida esa 4,04 barobar ko‘payishi aniqlangan.

3. Yantoq yer ustki qismlaridan biofaol moddalarga boy konsentrat olish texnologiyasi taklif etilgan. Konsentrat olish texnologiyasining optimal parametrlari aniqlangan: harorat 40°C, etil spiritning konsentratsiyasi 40 %, muhit kislotaligi pH~4,5 gidromodul 1:40, ekstraksiya davomiyligi 15-20 minut.

4. Yantoq konsentratning toksikologik ko‘rsatkichlari sichqonlarda o‘rganilib, OECD tasnifiga ko‘ra VI-sinfga nisbatan zararsiz birikmalar sinfiga tegishliligi aniqlangan.

5. Yantoq konsentratini asosida boyitilgan ichimliklar retsepturasini tuzishda qo‘shilayotgan komponentlarning ichimlik sifatiga ta‘siri asoslab berilgan: yantoq konsentratini 3-6 %, anor sharbati 3-5 %, malina sharbati 2-5 %, qovoq sharbati 1-4% ni tashkil etgan.

6. Yantoq konsentratini asosida boyitilgan ichimliklar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Taqdim etilayotgan texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik kuniga 100 dal funksional ichimlik uchun 2,6 mln. so‘mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc03/30.12.2019.Т.04.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ШАХРИСАБЗСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО
ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА**

ХОЛМУРОДОВ БАХОДИР БАХРОМ УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ОБОГАЩЕННЫХ
ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ НАПИТКОВ НА ОСНОВЕ
ВЕРБЛЮЖЬЕЙ КОЛЮЧКИ**

**02.00.17 - Технология и биотехнология обработки, хранения
и переработки сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высший аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2024.1.PhD/Т4402.

Диссертация выполнена в Шахрисабзком филиале Ташкентского химико-технологического института.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу www.tkti.uz и информационно-просветительским портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:

Ишимов Учкун Жомурадович

доктор философии (PhD) по химическим наукам,
доцент

Официальные оппоненты:

Исабаев Исмоил Бабаджанович

доктор технических наук, профессор

Қаршиев Толиб Овлаевич

кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «28» 10 2025 г. в «9⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.04.01 при Ташкентском химико-технологическом институте. (Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхонтахурский район, ул. А.Навои, 32. Тел.: (+99871) 244-79-20; факс: (+99871) 244-79-17; e-mail: tkti_info@edu.uz).

Диссертация зарегистрирована в информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института за № 376, с которым можно ознакомиться в ИРЦ (100011, г. Ташкент, Шайхонтахурский район, ул. А. Навои, 32. Тел.: (+99871) 244-79-20).

Автореферат диссертации разослан «25» 09 2025 года.
(протокол рассылки № 514 от 29/09 2025 года).



С.М. Туробжонов

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор, академик

Х.И. Кадиров

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

К.П. Серкаев

Председатель Научного семинара при научном
совете по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день производство функциональных напитков, направленных на здоровое питание и улучшение здоровья потребителей, приобретает важное значение в мировом масштабе. Функциональные напитки признаны продуктами, содержащими полезные вещества, витамины, минералы, пробиотики и растительные экстракты, которые оказывают положительное влияние на организм человека. Эти напитки не только утоляют жажду, но и способствуют общему улучшению состояния организма, укрепляют иммунную систему и оказывают эффективное профилактическое действие против ряда заболеваний.

В мировом производстве напитков наблюдаются инновационные подходы и внедрение новых технологий, в частности создание напитков, обогащенных натуральными антиоксидантами и биохимическими соединениями, что вызывает значительный интерес на международном рынке. Среди приверженцев здорового образа жизни и спортсменов растет спрос на напитки с полезными для здоровья компонентами. Эта тенденция стала особенно актуальной после пандемии COVID-19, поскольку люди начали уделять больше внимания своему здоровью.

В Республике Узбекистан ассортимент потребляемых пищевых продуктов и напитков значительно расширяется. Одной из основных причин роста является увеличение численности населения страны. Так, в январе 2025 года постоянное население республики составило 37 543 167 человек. По сравнению с предыдущим годом (36 799 800 человек) естественный прирост населения составил 1,98%. Наряду с этим значительно возросла потребность населения в продуктах питания, и, согласно прогнозам Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан, темпы роста потребления будут продолжать увеличиваться. Президент Республики Узбекистан инициировал ряд постановлений и программ, направленных на популяризацию здорового питания и повышение физической активности. В рамках стратегии развития "Новый Узбекистан" на 2022-2026 годы реализуется общенациональное движение "Правильное питание и здоровый образ жизни"².

Эта инициатива включает меры по информированию населения о принципах здорового питания, созданию мобильных приложений для мониторинга здоровья, а также ограничению рекламы нездоровых продуктов питания для детей.

В последние годы рост спроса на здоровый образ жизни привел к резкому увеличению потребности в функциональных продуктах питания и напитках, что стало одним из ключевых направлений глобальной пищевой промышленности. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), рынок функциональных продуктов питания к 2023 году превысил 280 миллиардов долларов США, и прогнозируется, что к 2027 году этот

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»

показатель достигнет 370 миллиардов долларов. В частности, сегмент функциональных напитков является одним из наиболее быстрорастущих направлений, с годовым темпом роста 8–10%.

В Узбекистане также растет спрос на здоровый образ жизни, экологически чистые и биологически активные продукты. По данным Центра санитарно-эпидемиологического контроля за 2022 год, 65% населения предпочитают натуральные и функциональные напитки для укрепления здоровья. В указах Президента и стратегических программах (например, постановление № ПК-208 от 28 апреля 2022 года) развитие производства здоровых продуктов на основе местного сырья определено как приоритетная задача.

Растение верблюжья колючка (*Alhagi maurorum*) широко распространено в Узбекистане и обладает богатым биоактивным составом, однако технология его использования в качестве функционального напитка недостаточно разработана. В связи с этим разработка технологии приготовления функционального напитка на основе верблюжьей колючки, а также изучение его химического состава и биологической активности имеют не только научное значение, но и практическую ценность для пищевой промышленности.

Данное исследование направлено на научное и практическое обоснование производства полезных для здоровья напитков с учетом современных требований и глубокого изучения местного сырья.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование проводилось в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и техники республики V.«Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

